

XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 45 466 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 34 520 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 75,9 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (50,9 %), savdo (15,7 %), sanoat (9,7 %) va qurilish (5,0 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2022 yil 1 oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	45 466	100,0	34 520	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23 149	50,9	13 733	39,8
sanoat	4 403	9,7	3 995	11,6
qurilish	2 256	5,0	2 153	6,2
savdo	7 130	15,7	6 592	19,1
tashish va saqlash	661	1,5	619	1,8
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 695	3,7	1 556	4,5
axborot va aloqa	295	0,6	264	0,8
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	372	0,8	352	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 505	12,1	5 256	15,2

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilning 1 oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 27 247 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 25 280 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 92,8 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (26,1%), sanoat (15,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (17,8 %) va qurilish (8,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.



**Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 oktabr holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	27 247	100,0	25 280	100,0

shu jumladan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 930	18,1	4 493	17,8
sanoat	4 403	16,2	3 995	15,8
qurilish	2 256	8,3	2 153	8,5
savdo	7 130	26,1	6 592	26,1
tashish va saqlash	661	2,4	619	2,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 695	6,2	1 556	6,2
axborot va aloqa	295	1,1	264	1,0
sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	372	1,4	352	1,4
boshqa faoliyat turlari	5 505	20,2	5 256	20,8



**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2022 yil 1 oktabr holatiga, birlik)**

*2022 yil
1 oktabr holatiga
ro‘yxatga
olinganlar soni*

*shuningdek, 2022 yil yanvar-sentabr
oylari davomida:*

*yangi tashkil
etilganlar*

tugatilganlar

Jizzax viloyati	45 466	3 872	739
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 643	854	189
---------------	--------------	------------	------------

tumanlar:

Arnasoy	2 542	112	65
Baxmal	3 847	289	56
G‘allaorol	5 204	415	67
Sharof Rashidov	6 214	462	41
Do‘slik	2 169	280	45
Zomin	4 295	360	63
Zarbdor	3 651	237	76
Zafarobod	2 030	129	7
Mirzacho‘l	2 248	164	21
Paxtakor	2 207	177	21
Forish	2 487	297	83
Yangiobod	929	96	5

2022 yilning yanvar–sentabr oylarida jami 3 872 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari 3 734 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 854 tasi, yoki 22,1 %) hamda Sharof Rashidov (462 tasi, yoki 11,9 %) G‘allaorol (415 tasi, yoki 10,7 %) Baxmal (289 tasi, yoki 7,5 %) Zomin (360 tasi, yoki 9,3 %) Forish (297 tasi, yoki 7,7 %) Do‘slik (280 tasi, yoki 7,2 %) Zarbdor (237 tasi, yoki 6,1 %) Paxtakor (177 tasi, yoki 4,6 %) Mirzacho‘l (164 tasi, yoki 4,2 %) Zafarobod (129 tasi, yoki 3,3 %) Arnasoy (112 tasi, yoki 2,9 %) va Yangiobod (96 tasi, yoki 2,5 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



**Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar
bo‘yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

	<i>2022 yil 1 oktabr holatiga ro‘yxatga olinganlar</i>	<i>shuningdek, 2022 yil yanvar-sentabr oylari davomida:</i>	
<i>yangi tashkil topganlar</i>		<i>tugatilganlar</i>	

Jizzax viloyati	27 247	3 749	543
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 565	851	189
--------	-------	-----	-----

tumanlar:

Arnasoy	926	108	15
Baxmal	1 787	286	28
G‘allaorol	2 450	406	51
Sharof Rashidov	3 915	444	37
Do‘slik	1 262	256	42
Zomin	2 224	342	30
Zarbdor	1 381	218	36
Mirzacho‘l	1 069	149	19
Zafarobod	842	122	5
Paxtakor	1 272	175	10
Forish	1 908	296	76
Yangiobod	646	96	5

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami 3749 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes sub’yektlari 3611 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 851 tasi, yoki 22,7 %), Sharof Rashidov (444 tasi, yoki 11,8 %) va G‘allaorol (406 tasi, yoki 10,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2022 yil 1 oktabr holatiga 23 861 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar 4 814 ta, oilaviy korxonalar 2 342 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 16 212 ta, aksionerlik jamiyatlari 20 tani tashkil etadi.



Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)


Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar

Xususiy korxonalar

Oilaviy korxonalar

Boshqa tijorat korxonalari

■ 2021 yil 1 oktabr holatiga ■ 2022 yil 1 oktabr holatiga



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 26,1 foizi savdo, 25,0 foizi qishloq va o‘rmon baliqchlik xo‘jaligi 18,6 foizi sanoat va 4,4 foizi qurilish sohalariga to‘g‘ri keladi.


Hisobot davrida 543 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2022 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 221 tani tashkil etdi.

2022 yilning 1 oktabr holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 221 tani tashkil etdi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 31 ta, Turkiya Respublikasi 46 ta, Rossiya Federatsiyasi 19 ta, Afg‘oniston 6 ta, Angilya Buyuk Britaniya 13 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 106 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.



Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning hamkor davlatlar kesimidagi
soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 133 tasi qo‘shma korxonalar, 88 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2022-2021 yillar yanvar-sentabr oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalar soni – 5 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizga kuzatildi. Bunda, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Angilya Buyuk Birtaniya – 1 ta, Rossiya Federatsiyasi – 1 ta. Qolaversa boshqa davatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 1 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2022 yil 1 oktabr holatiga, birlikda)

	2022 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	221	133	88
<i>shahar:</i>			
Jizzax	67	41	26
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	10	6	4
Baxmal	9	7	2
G'allaorol	20	12	8
Sharof Rashidov	21	10	11
Do'stlik	8	4	4
Zomin	15	7	8
Zarbdor	4	3	1
Mirzacho'l	6	2	4
Zafarobod	8	2	6
Paxtakor	8	7	1
Forish	33	25	8
Yangiobod	12	7	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,3 %), Forish tumanida 33 ta (14,9 %), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (9,5 %), G'allaorol tumanida 20 ta (9,0 %), Zomin tumanida 15 ta (6,8 %), Yangiobod tumanida 12 ta (5,4 %) hamda Arnasoy tumanlarida 10 ta (4,5 %) ni tashkil etadi.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2022 yil 1 oktabr holatiga)**

	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
--	------------------------------------	----------------------------------

Jami	221	100,0
-------------	------------	--------------

shu jumladan:

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40	18,1
Sanoat	115	52,0
Qurilish	13	5,9
Savdo	25	11,3
Tashish va saqlash	7	3,2
Yashash va ovqatlanish	3	1,4
Axborot va aloqa	3	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	13	5,8


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 221 ta korxonaning 115 tasi (52,0 %) sanoat, 40 tasi (18,1 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 25 tasi (11,3 %) savdo, 13 tasi (5,9 %) qurilish, 3 tasi (1,4 %) yashash va ovqatlanish, 7 tasi (3,2 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,4 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 13 % tasi (5,9 %) boshqa sohasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar

2022 yil 1 oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 21 918 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2021 yil 1 oktabr holatiga nisbatan 108,1 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 6 325 tasi (28,9 %) Jizzax shahriga, 3369 tasi (15,4 %) Sharof Rashidov, 1 944 tasi (8,9 %) G'allaorol va 1 779 tasi (8,1 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 21 918 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 6 582 tasi (30,0 %) savdo, 3 964 tasi (18,1 %) sanoat, 4 450 tasi (20,3 %) qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi, 2 146 tasi (9,8 %) qurilishda, 1 552 tasi (7,1 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 616 tasi (2,8 %) tashish va saqlash, 247 tasi (1,1 %) axborot va aloqa sohasi, 263 tasi (1,2 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek 2 098 tasi (9,6 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohalariga to‘g‘ri keladi.



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



2022 yilning yanvar–sentabr oylarida 3 611 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 108,1 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (811 ta), Sharof Rashidov (431 ta), G‘allaorol (400 ta) va Zomin (331 ta) Forish (287 ta) Baxmal (272 ta) Do‘stlik (250 ta) Zarbdor (211 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (90 ta), Zafarobod (116 ta) hamda Arnasoy (101 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (1 139 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchlik xo‘jaligi (939 ta), sanoat (695 ta), qurilish (166 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (213 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (45 ta), tashish va saqlash (48 ta) hamda axborot va aloqa (64 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022 yilning 1 oktabr holatiga 2 342 tani tashkil etdi, ulardan 2 098 tasi yoki 89,6 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning 859 tasi yoki 40,9 foizi sanoat, 488 tasi yoki 23,3 foizi savdo, 303 tasi yoki 14,4 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 287 tasi yoki 13,7 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11 tasi yoki 0,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 10 tasi yoki 0,5 foizi qurilish, 11 tasi yoki 0,5 foizi axborot va aloqa, 2 tasi yoki 0,1 tashish va saqlash hamda 127 tasi yoki 6,1 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



Xususiy korxonalar soni (2022 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2022 yil 1 oktabr** holatiga ko'ra 4 814 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 283 taga yoki 94,4 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 341 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 413 taga yoki 91,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2022 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 439 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 103 taga yoki 130,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022 yil 1 oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2022 yil 1 oktabr** holatiga ko'ra 16 212 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 211 taga yoki 115,8 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 111 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 636 taga yoki 112,1 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 529 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 60 taga yoki 97,2 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

